

KANAKUNJUT YOG‘I – GO‘ZALLIGINGIZ HIMYOYACHISI

Rasulova Yulduz Xasanovna

Pastdarg‘om Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
“Xirurgiya va reanimatsiyada hamshiralik parvarishi” ishi fani o‘qituvchisi

Omonova O‘g‘iloy Yoqub qizi

Pastdarg‘om Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
“Xirurgiya va reanimatsiyada hamshiralik parvarishi” ishi fani o‘qituvchisi

Rasulov Umarjon Xasan o‘g‘li

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada dorivor o‘simliklarning o‘rganilish tarixi hamda hammamizga tanish bo‘lgan qovoq o‘simligining dorivorlik xususiyatlari haqida qiziqarli ma‘lumotlar keltirilgan.

***Kalit so‘zlar.** Kanakunjut urug‘i, ritsinin, nikotin alkaloidlari, refraksiya, undesilen kislota.*

ODDIY KANAKUNJUT. Bir yillik o‘t o‘simlik bo‘lib, bo‘yi 2 m ga yetadi. Poyasi shoxlangan. Bargi yirik, tuksiz, 5 -11 barmoqsimon bo‘lakli bo‘lib, barg plastinkasining markaziga o‘rnashgan uzunbandi bilan poyada ketma-ket joylashgan. Barg bo‘lakchalari cho‘ziq tuxumsimon, cheti tishsimon qirrali. Gullari shingilga to‘plangan. Guli ko‘rimsiz, bir jinsli, gulqo‘rg‘oni oddiy, onalik gullari shingilning yuqori qismiga, otalik gullari esa pastki qismiga joylashgan. Mevasi uch urug‘li, uch chanoqli, tikan bilan qoplangan ko‘sak. Ko‘sak pishgandayoriladi va urug‘lari sochilib ketadi. Iyun-sentyabr oylarida gullaydi, mevasi iyul-oktyabrda yetiladi. Geografik tarqalishi. Vatani tropik Afrika. Tropik zonada o‘sadigan kanakunjut ko‘p yillik bo‘lib, poyasi yog‘ochlangan, bo‘yi 10 m ga yetadi. Kanakunjut bir yillik o‘t o‘simlik sifatida O‘rta Osiyo, Shimoliy Kavkaz, Ukrainaning janubiy qismida va Volga bo‘yida ekiladi. Urug‘ning tashqi ko‘rinishi. Urug‘ tuxumsimon bo‘lib, yaltiroq, qattiq, mo‘rt, guldor po‘st bilan qoplangan. Po‘sti kulrang yoki och qo‘ng‘ir rangli bo‘lib, qizil-qo‘ng‘ir dog‘, nuqta va chiziqlari bor. Urug‘ uchida kichkina oq karunkula-urug‘ o‘simtasi bo‘ladi. 1000 dona urug‘ning og‘irligi 800 g keladi. Kanakunjutning yirik va mayda urug‘li navlari bo‘lib, ular urug‘larining katta-kichikligi, og‘irligi, shingilda ko‘pligi va urug‘ tarkibida moyning ko‘p yoki oz miqdorda bo‘lishi bilan bir-biridan

farq qiladi. Yirigining urug‘i 15—22 mm, maydasining urug‘i esa 5—7 mm uzunlikda bo‘ladi. Urug‘ yaxshi pishmagan (po‘stining usti yaltiroq bo‘lmasa), ezilgan yoki karunkulasi tushib ketgan bo‘lsa, sifatsiz hisoblanadi. Ko‘p turib qolgan urug‘da esa karunkula bo‘lmaydi. Kanakunjut urug‘i zaharli bo‘lgani sababli tibbiyotda ishlatilmaydi. U faqat moy olinadigan mahsulot sifatida xizmat qiladi. Kimyoviy tarkibi.

Urug‘ tarkibida 40—56% qurimaydigan moy, 14—17% oqsil moddalar, 0,1—1% ritsinin va nikotin alkaloidlari, 18—19% kletchatka, lipaza fermenti, kuchli zaharli oqsil modda — ritsin va boshqa moddalar bo‘ladi. Ritsin o‘z tarkibida 17 ta aminokislota saqlaydigan oqsil modda bo‘lib, molekula og‘irligi 36000—77000 ga teng. O‘ziga xos disulfid bog‘lanishga ega 2 ta polipeptid (birinchisining tarkibiga alanin va izoleysin, ikkinchisining tarkibiga alanin-fenilalanin va serin kiradi) birikmalarining ritsin tarkibida uchrashi o‘ta darajada zaharli bo‘lishining sababchisidir. Tibbiyotda ishlatiladigan kanakunjut moyi urug‘dan sovuq presslash usuli bilan olinadi. Moydagi zaharli modda — ritsinni parchalash uchun undan issiq suv bug‘i o‘tkaziladi. Kanakunjut moyi sarg‘ish tiniq kuyuq suyuqlik bo‘lib, hidi va mazasi yoqimsiz. U spirtida yaxshi eriydi (boshqa moylardan farqi). Moy — 10—18°C haroratda qotadi. Moyning zichligi 0,948—0,968, refraksiya soni 1,475—1,480, sovunlanish soni 176—186 va yod soni 82—88, kislota soni 1,5 dan yuqori bo‘lmasligi kerak. Moy 80—85 % ritsinol (oksiolein) kislota glitseridlaridan tashkil topgan. Uning tarkibida yana stearin, olein, linol va dioksistearin kislotalarining glitseridlari uchraydi.

Kanakunjut urug‘ining kunjarasi zaharli. Undan azot saqlovchi o‘g‘it sifatida foydalaniladi. Ishlatilishi. Kanakunjut moyi tibbiyotda eng yaxshi surgı dori sifatida ishlatiladi, shuningdek, ginekologiyada hamda ko‘z kasalliklari, yaralar, tananing kuygan yerini, leyshmanioz va boshqa teri kasalliklarini davolashda qo‘llaniladi. Kanakunjut moyi soch o‘shishiga yordam beradi. Kanakunjut moyi past bosimda, 240—300°C issiqlikda qizdirilsa, tarkibidagi ritsinol kislota parchalanib, geptaldegid etanol va undesilen kislota hosil qiladi. Hosil bo‘lgan undesilen kislota fungitsid (parazit zamburug‘larni o‘ldiradigan) xossaga ega bo‘lganidan teri kasalliklari — dermatozlar hamda psoriasis kasalliklarini davolashda qo‘llaniladi.





Dorivor preparatlari.

Kanakunjut moyi, moy emulsiyasi, urug‘dan tayyorlangan pasta va undesilen kislotadan tayyorlangan surtma. Undesilen kislota teri kasalliklari — dermatozlar va psoriazni davolashda ishlatiladigan „Sinkundan“ va „undesin“ surtmalari hamda „dustundan“ kukuni (poroshogi) tarkibiga kiradi. Bundan tashqari, moy Vishnevskiy surtmasi va elastik kolodiy tarkibiga ham kiradi. Moy sovun olishda, texnikada esa motorlarni moylashda, plastmassa, linoleum, hamda boshqa materiallar tayyorlashda ishlatiladi. Kanakunjut moyining past haroratda qotishi, spirtida erishi, nihoyatda yopishqoqligi hamda surgu xususiyati uning tarkibida oksiolein — ritsinol kislotaga bog‘liq. Moy yuqori haroratda qizdirilsa, ritsinol kislotaga gidroksil guruhini, moy esa yuqorida aytib o‘tilgan xossalarini yo‘qotadi. Shu sababdan moyini ovqatga ishlatish uchun kanakunjut Xitoyda va Hindistonda ko‘p ekiladi. Kanakunjut moyining foydalari xakida bilasizmi? Zamonaviy tibbiyotda kanakunjutning urug‘idan olingan moyi ishlatiladi. Urug‘i zaharli, tarkibida ko‘p miqdorda moy, lipaza fermenti, oqsil (shu jumladan, o‘ta zaharli ritsin), ritsinin alkaloidi va boshqa moddalar bor. Kanakunjut moyi eng yaxshi surgu sifatida qo‘llanadi. Bundan tashqari, u terini yumshatish uchun, ginekologiya va jarrohlik amaliyotida hamda surtma va balzamlar tarkibiga qo‘shilib, kuyganni, yaralarni, leyshmaniozni davolashda ishlatiladi, moyidan olingan undesilen kislotasining surtmasi («undesin») dermatozlar, psoriaz va boshqa teri kasalliklarida qo‘llaniladi. Kanakunjut yog‘idan o‘z o‘rnida foydalanilsa bir qator xastaliklarga shifo bo‘ladi. So‘gallarni ketkazish uchun kechqurun yotishdan oldin 20 daqiqa davomida kanakunjut yog‘i so‘galga surtiladi. Yangi tug‘ilgan go‘dakning kindigi tezda tuzalmayotgan bo‘lsa, unda kanakunjut yog‘i surtib turmoq lozim. Kanakunjut yog‘i haftasiga bir marta kipriklarga surtilsa, kipriklar tez o‘sadi.

Ayollarning ko'krak beziga kanakunjut yog'i surtilsa, sut ajralishi ko'payadi. Go'dakning sochi sekin o'sayotgan bo'lsa, uning boshiga kanakunjut yog'i singdirib surtiladi. Odatda bunday muolaja haftasiga ikki marta qo'llanilib, kechqurun surtilgan yog' ertalab yuvib tashlanadi. Sochning o'sishi jadallashgach, bunday tadbir haftasiga bir marta qo'llanishi mumkin. Bavoil qiynayotgan bo'lsa, to'g'ri ichakning tashqi qismiga kanakunjut yog'i surtiladi. U shilliq qavatni yumshatib, davolanishga yordam beradi. Tik turib mehnat qilish natijasida oyoqlar zirqirab og'riydigan bo'lsa, haftasiga ikki marotaba uyqudan oldin oyoqqa kanakunjut yog'i ishqab surtilgach, ustidan paxta matoli paypoq kiyib yotiladi. Bunday muolaja qo'llangach, oyoq terisi mayin tortib noxush og'riqlardan xalos bo'lishi mumkin. Tanangizda yaralar bo'lsa, kanakunjut yog'ini surting, yaradan xalos bo'lasiz. Shamollaganda yoki bronxit bilan og'riganda 1 oshqoshiq skipidar va 2 oshqoshiq kanakunjut yog'i aralashtirilib, ko'krakka yengil surtilgach, issiq mato bilan o'ralsa tuzalish tezlashadi.

Kanakunjut moyini muntazam qo'llanilganda teriga ijobiy yordam beradi. Teri muloyim, baxmalga o'xshash mayin, tarang ko'rinishda bo'ladi. Shu bilan birgalikda bu moy teridagi namlikni bir xilda ushlaydi.

Teridagi dog' va husnbuzarlarning rangini oqartirish xususiyatiga ega. Sovuq holda siqib olingan moy eng foydali va eng sifatli moy hisoblanadi. Kanakunjut moyi issiq siqish va kimyoviy yo'l bilan ham olinadi. Bu yo'l bilan olingan moy sifati biroz past va shu bilan birgalikda uning foydalik xususiyati ham biroz kamroq bo'ladi. Moy asosan soch va kipriklarning yaxshi o'sishiga ko'maklashadi. Kanakunjut moyi quruq teri uchun juda foydali. Sababi moy bevaqt ajin tushishining oldini olib unga mayinlik baxsh etadi. Shuningdek, bu moyni shifokor yoki xalq tabibi tavsiyasiga asosan qabul qilish, shu bilan birgalikda ta'sirchan terilarni tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatish mumkin. Bu moy yordamida mayda ajinlarga qarshi samarali kurashish mumkin. Barchaga ma'lumki ko'z atrofi terisi ajinlar bilan qoplanishga moyil bo'ladi. Moyni doimiy ravishda qo'llash orqali bu muammodan ham xalos bo'lish mumkin. Kanakunjut moyini terida qo'llashda ehtiyotkor bo'lgan ma'qul. Eng yaxshisi bu moyni sof holda qo'llamaslik kerak. Moy o'zining ajoyib sifati bilan yuqori natija ko'rsatsada, allergik reaksiya chaqirishi ehtimoldan xoli emas. Sababi moy boshqa efir moyi bilan aralashtirilgan holda tayyorlangan bo'lishi mumkin. Ko'z atrofi terisi uchun 1 marta 1 tomchi kanakunjut moyidan foydalanish, 2-3 marta krem (ko'z atrofi terisi uchun mo'ljallangan) dan foydalanishga teng. Agar kanakunjut moyi vositasida ajinlar bilan kurashmoqchi bo'lsangiz uni boshqa moylar (zaytun, shaftoli, na'matak moylari) bilan birgalikda qo'llagan ma'qul. Shu bilan birgalikda bu moydan kosmetolog – shifokor tavsiyasi asosida boshqa mahsulotlar bilan aralashtirib, oziqlantiruvchi niqob tayyorlash mumkin. Kanakunjut moyini quruq teri uchun qo'llaganda boshqa turdagi moyni 1:3 nisbatta aralashtirish maqsadga muvofiq. Papilloma, so'gallarga qarshi.

Kuniga 2 martadan ustiga 1 tomchi kanakunjut yog'i tomiziladi va makiyaj paxtasi bilan yopib, yopishqoq lenta bilan yopishtiriladi. Kuniga 2 martadan. Qarilik dog'lariga qarshi paxtaga bir necha tomchi kanakunjut yog'ini quyish va u bilan terini artib olish kifoya. Haftada ikki marta yotishdan oldin oyoqqa moy surtib, paxta matosidan paypoq kiying. Asta-sekin qadoq yumshoq bo'ladi va keyin butunlay yo'qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'. Axmedov, A.Ergashev, A.Abzalov va boshqalar. "Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya"
2. Xolmatov H.X, Axmedov O. "Farmakognoziya" -1,2 qism.
3. Xolmatov X.X va boshqalar "Ruscha-lotinch-a-o'zbekcha dorivor o'simliklar lug'ati"
4. Murodaxayev Yu,M "O'zbekiston vatan topgan dorivoro'simliklar"